

THE ROLE OF SYNTAX IN ARTISTIC SPEECH**Qudratullayev Shahzod Shahriyorovich***Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages*

Abstract: *This article analyzes the role and significance of syntax in artistic speech. It highlights not only the grammatical but also the aesthetic functions of syntactic units and reveals the functional features of such devices as sentence structure, word order, inversion, syntactic repetition, ellipsis, antithesis, and gradation in literary texts. Based on examples from various writers, the use of syntactic means and their role in conveying the rhythm, tone, and psychological state of characters are examined. The study substantiates that syntax serves as an important expressive tool in artistic discourse.*

Keywords: *artistic speech, syntax, sentence structure, word order, inversion, syntactic repetition, ellipsis, antithesis, gradation, style, artistic expression*

BADIIY NUTQDA SINTAKSISNING O‘RNI**Qudratullayev Shahzod Shahriyorovich***Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy nutqda sintaksisning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Sintaktik birliklarning nafaqat grammatik, balki badiiy-estetik vazifalari yoritilib, gap tuzilishi, so‘z tartibi, inversiya, sintaktik takror, ellipsis, antiteza va gradatsiya kabi vositalarning badiiy matndagi funksional xususiyatlari ochib beriladi. Turli yozuvchilar ijodi misolida sintaktik vositalarning qo‘llanishi, ularning asar ritmi, ohangi va qahramonlar ruhiyatini ifodalashdagi roli tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida sintaksisning badiiy nutqda muhim ifoda vositasi sifatida xizmat qilishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: badiiy nutq, sintaksis, gap tuzilishi, so‘z tartibi, inversiya, sintaktik takror, ellipsis, antiteza, gradatsiya, uslub, badiiy ifoda

РОЛЬ СИНТАКСИСА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ**Кудратуллаев Шахзод Шахриярович***Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков*

Абстрактный: *В данной статье анализируется роль и значение синтаксиса в художественной речи. Освещаются не только грамматические, но и художественно-эстетические функции синтаксических единиц, раскрываются функциональные особенности таких средств, как структура предложения,*



порядок слов, инверсия, синтаксический повтор, эллипсис, антитеза и градация в художественном тексте. На примере творчества различных писателей рассматривается использование синтаксических средств, их влияние на ритм, интонацию произведения и раскрытие внутреннего мира персонажей. В результате исследования обосновывается значимость синтаксиса как важного средства художественной выразительности.

Ключевые слова: *художественная речь, синтаксис, структура предложения, порядок слов, инверсия, синтаксический повтор, эллипсис, антитеза, градация, стиль, художественная выразительность*

Sintaksis deganda ko'pchilik talabalar murakkab grammatik qoidalar, gap tuzilmalari, analiz qilish kerak bo'lgan mashqlarni tushunadi. To'g'ri, sintaksis tilshunoslikning so'z birikmalari va gaplarning tuzilishini o'rganadigan bo'limi. Lekin sintaksisni chuqurroq o'rganish jarayonida uning badiiy nutqdagi o'rni haqida qanchalik kam fikr yuritilayotgani hayratlanarli. Negaki, sintaksis – bu yozuvchining eng kuchli quroli, uning yordamida u o'quvchining kayfiyatini boshqaradi, qahramonlar xarakterini ochib beradi, asarning ritmi va ohangini yaratadi. Bir xil voqeani turli yozuvchilar turlicha tasvirlaydi va bunda sintaksisning roli beqiyos. Masalan, Abdulla Qahhor va Cho'lpon ijodini solishtirishning o'ziyoq sintaksisning badiiy ifodadagi o'rnini ko'rsatishga yetadi. Qahhorning qisqa, keskin gaplari voqeani tez sur'atlarda rivojlantiradi, o'quvchini doimiy taranglikda ushlab turadi. Cho'lponning uzun, nafis, lirik gaplari esa o'quvchini muayyan ruhiy holatga soladi, voqealar oqimiga asta-sekin olib kiradi. Shu ma'noda, sintaksisni o'rganish orqali biz nafaqat til qurilishining qonuniyatlarini, balki adabiy asarlarning ta'sirchanlik sirlarini ham anglaymiz. "Sintaksis" so'zining o'zi yunoncha "syntaxis" dan olingan bo'lib, "tuzish, tartibga solish" degan ma'noni anglatadi. Bu atama birinchi marta qadimgi yunon olimlari tomonidan qo'llanilgan. O'sha davrlarda ham odamlar tilni tizimli o'rganishga harakat qilishgan va so'zlarning gap ichidagi o'rniga e'tibor berishgan. Qadimgi hind grammatikasi asoschisi Panini, yunon olimlari Dionisiy Frakiyskiy, Apolloniy Diskol asarlarida gap tuzilishi, so'z birikmalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar uchraydi. Keyinchalik, o'rta asrlarda sintaksis ko'pincha mantiq fanining bir qismi sifatida talqin qilingan. Uyg'onish davrida sintaksisga qiziqish yana kuchaygan, xususan, fransuz olimi Pyer de la Rame o'zining grammatik asarlarida sintaktik masalalarni alohida o'rgangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sintaksis mustaqil fan sifatida shakllandi. Nemis olimlari V. Gumboldt, G. Shteyntal, A. Shleyxer asarlarida sintaksisning umumiy nazariy masalalari qo'yilgan. Bu olimlarning izlanishlari keyingi avlod tadqiqotchilari uchun mustahkam zamin yaratib berdi. Rus tilshunosligida bu sohada A.A. Shaxmatov, A.M. Peshkovskiy, V.V. Vinogradov kabi olimlar katta hissa qo'shgan. A.A. Shaxmatovning "Синтаксис русского языка" (1941) asari rus sintaksis fanining fundamental manbalaridan biri hisoblanadi. Olim bir qismli gaplar



klassifikatsiyasini ishlab chiqqan, ularning har birining o'ziga xos xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan. Uning bu klassifikatsiyasi hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va ko'plab darsliklarda asos qilib olinadi.⁶⁰ A.M.Peshkovskiy esa o'zining "Русский синтаксис в научном освещении" (1956) asarida sintaksisni nafaqat qoidalar majmui, balki matnni tushunish va talqin qilish san'ati sifatida talqin qilgan. Peshkovskiy sintaksisni o'qitish metodikasiga ham katta hissa qo'shgan, uning "Наш язык" (1922-1927) darsliklari bir necha marta qayta nashr etilgan va hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan⁶¹ V.V.Vinogradovning "О теории художественной речи" (1971) asari badiiy nutq sintaksisini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Olim badiiy nutqda sintaktik vositalarning uslubiy funksiyalarini chuqur tahlil qilgan, muallif individual uslubining sintaktik xususiyatlarini ochib bergan. Vinogradovning "Русский язык. Грамматическое учение о слове" (1947) asarida sintaksisning morfologiya bilan aloqasi, so'z va gap o'rtasidagi munosabatlar masalalari yoritilgan. Bu asarlarni o'qish jarayonida rus olimlarining sintaksis nazariyasiga qo'shgan hissasi naqadar buyuk ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. O'zbek tilshunosligida sintaksis masalalari A.G'ulomov, G'.Abdurahmonov, A.Nurmonov, H.Normatov, I.Rasulov, M.Asqarova, R.Sayfullayev kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. A.G'ulomovning "Sodda gap sintaksisi" (1948) asari o'zbek ilmiy grammatikasining shakllanishida muhim rol o'ynagan. Mazkur asarda o'zbek tilidagi sodda gaplarning turlari, ularning tuzilishi, gap bo'laklari masalalari batafsil tahlil qilingan. G'.Abdurahmonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis" (1975) darsligi universitetlarning filologiya fakultetlari talabalari uchun asosiy qo'llanma vazifasini o'tagan. A.Nurmonov, H.Normatov, I.Rasulov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'zbek tili sintaksisining nazariy va amaliy masalalari yangicha yondashuvlar asosida o'rganilgan. Keyingi yillarda matn sintaksisi, badiiy nutq sintaksisi, lingvopoetika kabi yo'nalishlar jadal rivojlanmoqda.⁶² Xususan, H.Normatovning "O'zbek tilida matn sintaksisi masalalari" (1998) asari, I.Rasulovning "O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis" (2015) darsligi bu sohadagi muhim tadqiqotlardandir. Bu olimlarning ishlarini o'rganish jarayonida o'zbek tilshunosligining sintaksis sohasida erishgan yutuqlari bilan tanishish mumkin. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hammaga ma'lum. Gap muayyan fikrni ifodalovchi, grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan, kommunikativ vazifani

⁶⁰ Беднарская, Л. Д. (2024). «Развитие лингвистических идей А. А. Шахматова в XXI веке.» Ученые записки Петрозаводского государственного университета, Том 46, № 7, 61

⁶¹ Khalikova, N. (2019). "To the Issuance of the Book by A. M. Peshkovsky 'Linguistics. Poetics.

Stylistics'." Russkaya rech, Issue 2

⁶² Normatov, H. (2017). O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Sintaksis.





bajaruvchi asosiy sintaktik birlikdir. Ammo badiiy nutqda gap oddiy grammatik birlikdan tashqari, yana ko‘plab vazifalarni bajaradi. Masalan, qisqa gaplar yordamida yozuvchi voqeaning tez rivojlanayotganini, hayajonni, keskinlikni ifodalashi mumkin. Uzoq, murakkab gaplar esa fikrning sekin, vazmin, tantanali tarzda rivojlanishini ta’minlaydi. Bu jihatdan Abdulla Qahhor va Cho‘lpon ijodini solishtirish qiziqarli natijalar beradi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi qisqa, keskin gaplar voqeaning jadal rivojlanishini ta’minlasa, Cho‘lpon nasridagi uzoq, nafis gaplar o‘quvchini muayyan ruhiy holatga soladi, uni voqealar oqimiga olib kiradi. Bu ikki yozuvchining uslubidagi farq aynan sintaksis orqali namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi qisqa, keskin gaplar voqeaning jadal rivojlanishini ta’minlasa, Cho‘lpon nasridagi uzoq, nafis gaplar o‘quvchini muayyan ruhiy holatga soladi, uni voqealar oqimiga olib kiradi. Bu ikki yozuvchining uslubidagi farq aynan sintaksis orqali namoyon bo‘ladi. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidagi keskin burilishlar, qisqa dialoglar, parchalangan gaplar voqeaning dinamikasini oshirishga xizmat qiladi, o‘quvchini doimiy taranglikda ushlab turadi.⁶³ Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi uzoq, musiqiy gaplar esa o‘quvchini romandagi voqealar olamiga asta-sekin olib kiradi, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini chuqur his qilish imkonini beradi. Sintaksisning yana bir muhim vositasi – so‘z tartibi. O‘zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo‘lib, unda so‘z tartibi nisbatan erkin. Biroq, bu erkinlik o‘zboshimchalik ma’nosida emas, balki so‘z tartibi yordamida muayyan kommunikativ va uslubiy maqsadlarni amalga oshirish imkoniyati ma’nosida tushunilishi kerak. O‘zbek tilida neytral (odatiy) so‘z tartibi “ega – to‘ldiruvchi – hol – kesim” shaklida bo‘ladi. Bu tartibning o‘zgarishi (inversiya) ma’lum uslubiy maqsadni ko‘zlaydi: diqqatni muhim elementga qaratish, emotional ta’sirni kuchaytirish, obrazlilikni oshirish. Inversiya yordamida muallif o‘quvchining e’tiborini gapning muhim bo‘lagiga tortadi, uni ta’kidlaydi. “Keldi bahor” gapi odatdagi “Bahor keldi” gapidan ko‘ra ko‘proq emotsional yukka ega, chunki bu yerda kesimning oldinga chiqarilishi orqali bahorning kelishiga alohida urg‘u berilgan. “Baland tog‘lar, serbar dalalar, yam-yashil o‘tloqlar – bularning barchasi uning ko‘z oldida edi” gapida esa aniqlovchilarning oldinga chiqarilishi orqali tasvirlanayotgan manzaraning go‘zalligi, ko‘rkamligi ta’kidlangan. V.V.Vinogradov o‘z asarlarida so‘z tartibi stilistik vositalarni yaratishda asosiy kategoriya bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlagan.⁶⁴ Uning fikricha, so‘z tartibi orqali muallif gapning aktual bo‘linishini amalga oshiradi, mavzu va remani ajratadi, muhim ma’lumotni ta’kidlaydi. Rus tilida ham inversiya keng qo‘llaniladi. I.S.Turgenev asarlarida inversiya orqali psixologik holatlar, qahramonlarning ichki kechinmalari ifodalanadi. “Любил он её страстно” gapida “страстно” holining kesimdan keyin kelishi orqali muhabbatning kuchliligi

⁶³ Беднарская, Л. Д. (2024). «Развитие лингвистических идей А. А. Шахматова в XXI веке.» Ученые записки Петрозаводского государственного университета, Том 46, № 7, 112-СТ

⁶⁴ Vinogradov, V. V. (1971). О теории художественной речи. Москва: Высшая школа 285-СТ



ta'kidlangan. L.N.Tolstoy asarlarida inversiya qahramonlar nutqining individual xususiyatlarini yaratishda muhim rol o'ynaydi. "Anna Karenina" romanidagi Anna va Vronskiy nutqidagi inversiyalar ularning ruhiy holatini, bir-biriga munosabatini ifodalashda muhim vositadir. F.M.Dostoyevskiy asarlaridagi inversiyalar esa qahramonlarning ruhiy iztiroblarini, ichki qarama-qarshiliklarini ifodalashga xizmat qiladi. "Jinoyat va jazo" romanidagi Raskolnikov nutqidagi inversiyalar uning murakkab ruhiy holatini, ichki kurashlarini ochib beradi. Badiiy nutqda sintaktik takrorlar ham keng qo'llaniladi. Takrorlar – bir xil so'z, ibora yoki sintaktik konstruksiyaning bir necha marta qaytarilishi – matnni uyg'unlashtiradi, unga ritm va ohang beradi, muayyan fikrni ta'kidlashga xizmat qiladi. Takrorlarning bir necha turlari mavjud: anafora (boshda takror), epifora (oxirda takror), anadiploz (oldingi gapning oxirgi so'zini keyingi gapning boshida takrorlash), simploka (boshda va oxirda bir vaqtda takror). Anafora Cho'lpon she'riyatida ko'p uchraydi: "Yana o'sha dala, yana o'sha yo'l, yana o'sha yolg'iz sayohatchi". Bu yerda "yana o'sha" so'zining takrorlanishi orqali yolg'izlik, g'ariblik hissi kuchaytirilgan. Epifora esa Erkin Vohidov she'rlarida uchraydi: "Seni sog'indim, yor, seni sog'indim, Ko'nglimni toldir, yor, seni sog'indim". Anadiploz xalq og'zaki ijodi namunalarida, xususan, dostonlarda keng qo'llaniladi: "Qorako'z kelin, kelin qiz edi, Qiz edi, go'zal qiz edi". Bu takror orqali kelinning go'zalligi, uning obrazining jozibadorligi ta'kidlangan. Rus she'riyatida A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, A.A.Blok, S.A.Yesenin, A.A.Axmatova, M.I.Svetayeva kabi shoirlar takrorlardan unumli foydalanganlar. A.S.Pushkinning "Зимнее утро" she'rida: "Мороз и солнце; день чудесный! / Еще ты дремлешь, друг прелестный..." misralaridagi parallel qurilmalar she'ning musiqiy ohangini kuchaytirib, uning yorqin, quvnoq kayfiyatini ifodalaydi.⁶⁵ M.Yu.Lermontovning "Папус" she'ridagi parallel konstruksiyalar esa she'ning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. A.A.Blok she'rlaridagi anaforalar ramziy obrazlarning ta'sirchanligini oshirgan. S.A.Yesenin she'rlaridagi takrorlar esa xalq qo'shiqlari uslubiga yaqinlikni ta'minlaydi.

Ellipsis – gap bo'laklarining tushirib qoldirilishi – badiiy nutqda keng qo'llaniladigan yana bir sintaktik vosita. Ellipsis yordamida muallif gapni ixchamlashtiradi, fikrni tezlashtiradi, o'quvchini faol idrok etishga undaydi. Tushirib qoldirilgan bo'lakni o'quvchi kontekstdan, vaziyatdan kelib chiqib tiklaydi. Bu esa matn bilan o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, dialogik nutqda, ichki monologlarda ellipsis ko'p uchraydi. O'tkir Hoshimov asarlaridagi dialoglarda ellipsis qahramonlarning ruhiy holatini, ularning hissiyotlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, "Sen... bilasanmi? ... Yo'q, gapirma..." kabi qurilmalar orqali qahramonning hayajoni, ikkilanishi, ichki ziddiyati aks ettiriladi. Bu yerda nuqtalar

⁶⁵ Vohidov, E. (2000). Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot 89-bet 27
Polovina, L. (2024).





orqali soʻzning tugallanmay qolishi, fikrning uzilishi qahramonning ruhiy holatini aniq koʻrsatadi.⁶⁶

Antiteza – qarama-qarshi qoʻyish – yordamida muallif qahramonlar xarakteridagi, voqealar rivojida, gʻoyalardagi ziddiyatlarni, qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. “Kun bilan tun, yaxshilik bilan yomonlik, muhabbat bilan nafrat – bu dunyo qarama-qarshiliklar ustiga qurilgan” degan fikr antitezaga asoslangan. Tohir Malikning “Shaytanat” romanida yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash, inson qalbidagi ziddiyatlar antiteza orqali ifodalangan. Roman qahramonlarining murakkab ruhiy dunyosi, ularning oʻzaro munosabatlari, toʻqnashuvlari antiteza yordamida yorqin tasvirlangan. Qahramonlardan baʼzilari yaxshilik timsoli boʻlsa, boshqalari yomonlikni ifodalaydi. Ammo romanda yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi chegara aniq emas, koʻpincha ular bir-biriga qoʻshilib ketadi, inson qalbida murakkab kurash ketadi. Bu esa asarni realistlik va ishonarli qiladi.⁶⁷ Rus adabiyotida F.M. Dostoyevskiy asarlarida antiteza alohida oʻrin tutadi. Yozuvchi qahramonlarining ichki dunyosidagi ziddiyatlarni, ularning ruhiy kurashlarini antiteza orqali mahorat bilan ifodalagan. Raskolnikov, Ivan Karamazov kabi qahramonlarning qalbida yaxshilik va yomonlik, eʼtiqod va inkor, muhabbat va nafrat oʻrtasida keskin kurash ketadi. Bu kurashni Dostoyevskiy antiteza orqali ajoyib tasvirlagan. Gradatsiya – biror belgi yoki xususiyatning bosqichma-bosqich kuchayishi yoki kamayishi – badiiy nutqda hissiy taʼsirni oshirish vositasi sifatida ishlatiladi. Gradatsiya yordamida muallif oʻquvchining diqqatini asta-sekin kuchaytirib boradi, eng muhim nuqtaga yetganda esa keskin burilish yasaydi. Misol qilib aytganda, “U keldi, yaqinlashdi, koʻzlariga tikildi, soʻng jimgina gapirdi” gapida harakatlarning bosqichma-bosqich kuchayishi ifodalangan. “Kichkina, kattaroq, katta, ulkan” soʻzlari orqali gradatsiya hosil qilingan. Oʻtkir Hoshimov asarlarida psixologik holatlarni tasvirlashda gradatsiyadan unumli foydalanilgan. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, ularning ichki oʻzgarishlarini bosqichma-bosqich ochib boradi. Masalan, qahramonning qaygʻusi asta-sekin kuchayib, umidsizlikka aylanadi, keyin esa umidsizlik gʻazabga, nafratga aylanadi. Bu jarayonni yozuvchi gradatsiya orqali mahorat bilan ifodalaydi.⁶⁸ L.N.Tolstoy asarlarida psixologik holatlarni tasvirlashda gradatsiya alohida oʻrin tutadi. “Anna Karenina” romanidagi Anna obrazining ruhiy evolyutsiyasi gradatsiya orqali bosqichma-bosqich ochib berilgan. Annaning baxtli sevgidan umidsizlikka, undan esa fojiali yakunga olib kelgan ruhiy tushkunlikka tushish jarayoni gradatsiya yordamida mahorat bilan tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy nutqda sintaksisning oʻrni nihoyatda muhim va koʻp qirrali ekanligi yaqqol namoyon boʻladi. Sintaktik birliklar nafaqat grammatik vazifani

⁶⁶ "Stilistika oʻqitishda epitet ustida ishlash rus tili." inLibrary, 1(2), 218-bet

⁶⁷ Malik, T. (2002). Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti 203-bet

⁶⁸ Khalikova, N. (2019). "To the Issuance of the Book by A. M. Peshkovsky 'Linguistics. Poetics. Stylistics'." Russkaya rech, Issue 2. 73-P



bajaradi, balki badiiy ifoda vositasi sifatida ham muallifning estetik maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Gap tuzilishi, uning uzun-qisqaligi, soʻz tartibi, takrorlar, inversiya, ellipsis, antiteza va gradatsiya kabi sintaktik vositalar orqali yozuvchi oʻquvchining hissiy holatiga taʼsir koʻrsatadi, voqealarning dinamikasini boshqaradi hamda qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, turli ijodkorlar sintaktik vositalardan oʻziga xos uslubda foydalanadi. Masalan, qisqa va keskin gaplar voqeani tezlashtirsa, murakkab va choʻzilgan gaplar tasvirning sokin va chuqur kechishini taʼminlaydi. Shuningdek, inversiya orqali muhim fikrga urgʻu beriladi, sintaktik takrorlar matnga ritm va ohang bagʻishlaydi, ellipsis esa fikrni ixchamlashtirib, oʻquvchini faol idrokka undaydi. Antiteza va gradatsiya kabi vositalar esa badiiy tasvirning emotsional kuchini oshirib, qahramonlar ruhiyati va ziddiyatlarini yanada teran ochishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Беднарская, Л. Д. “Развитие лингвистических идей А. А. Шахматова в XXI веке.” Ученые записки. Петрозаводского государственного университета, Том 46, № 7, 2024.
2. Khalikova, N. "To the Issuance of the Book by A. M. Peshkovsky 'Linguistics. Poetics. Stylistics'." Russkaya rech, Issue 2 . 2019.
3. Normatov, H. Oʻzbek tilining amaliy grammatikasi. Sintaksis. Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyoti. 2017.
5. Vinogradov, V. V. О теории художественной речи. Москва: Высшая школа.1971.
6. Vohidov, E. Tanlangan asarlar. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyoti. 2000.
7. "Stilistika oʻqitishda epitet ustida ishlash rus tili." inLibrary, 1(2),
8. Malik, T. Shaytanat. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2002.